

8-SINF GEOGRAFIYASIDAGI AVTOMOBILSOZLIK MAVZUSIDA INTERAKTIV DARS BERISH USULLARI

Andijon davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti

Isayev Akbarjon Abdulhamidovich

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

Annotatsiya

Ushbu maqola 8-sinf geografiyasidagi Avtomobil mavzusida interaktiv ta'lim berish usullari haqida yozilgan.

KALIT SO'ZLAR: DTS, malaka, ta'lim, chizig'iga moslang, FSMU, Sokin test usuli

Абстрактный

В данной статье написано о методах интерактивного обучения на тему автомобиля в 8 классе географии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: ДТС, квалификация, образование, состав, ФГМУ, метод бесшумных испытаний.

Abstract

This article is written about the methods of interactive learning on the topic of cars in the 8th grade of geography.

KEYWORDS: DTS, qualification, education, composition, Federal State Medical University, noiseless test method.

KIRISH

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son qonunining 1-bob 3-moddasida quyidagi atamalarga izoh berib o'tilgan. Unga ko'ra:

Davlat ta'lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

Davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

Davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

Malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

Ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Yuqoridagi qoidalardan kelib chiqqan holda quyidagi fikrga kelishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1997-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 5 bo'lim va 34 moddadan iborat. Qonunning 5-moddasida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi aniq ifodalangan. Ya'ni "Tegishli kasb malakasiga ega bo'lgan, o'zida yuksak axloqiy sifatlarni mujassamlashtirgan kishilar pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga egadirlar."

O'zbekiston Respublikasi konsitutsiyasining 41-42-moddalarida O'zbekiston fuqarolarining ta'lim sohasidagi huquqlari belgilab berilgan.

Pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflashga yagona yondashuv mavjud emas. Hozirgi didaktikada o'qitish metodlarini bilimlar manbayi bo'yicha (S.O.Lordkipanidze, Y.Y.Golant), didaktik maqsadlar bo'yicha (B.P.Yesip), bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha (I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, M.I.Maxmutov) farqlash eng ko'p tarqalgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

8-sinf geografiyasidagi rangli metallurgiya mavzusida quyidagi metodikalardan foydalanish o'quvchilarni bilim olishida foydali bo'ladi.

1.Chizig'iga moslang usuli. Ushbu usul o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishi

va intilishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Masalan, Asaka avtomobil zavodining boshqa korxonalar bilan aloqalari quyidagicha:

1. Andijon sh. "Uz-SeMyung KO" qo'shma korxonasi – avtomobil bampelari
2. Andijon vil. "Uz_koram" qo'shma korxonasi – yoqilg'i baklari
3. Andijon vil. "Uz-Dong Yang" qo'shma korxonasi – glushitel, kuzov qismlari

4. Andijon vil. "Uz-Dong Von" YoAJ – yumshoq qoplamalar

5. Navoiy vil. "UzErae Cable" OAK – avtomobil elektr o'tkazgichlari.

2. FSMU usuli. Ushbu usul to'rt bosqichli yozilgan varoqlarni tarqatadi.

O'quvchilar yakka tartibda ularni to'ldirishadi. F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating; M – ko'rsatgan sababingizni aniqlovchi misol keltiring; U – fikringizni umumlashtiring.

F - "Avtomobilsozlik O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng shakllandi. 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Janubiy Koreyaning DAEWOO kompaniyasi bilan hamkorlikda Andijon viloyatining Asaka shahrida paxta tashiydigan tirkamalar zavodi negizida yengil avtomobillar ishlab chiqariladigan Uz-Daewoo Avto (bugungi kunda GM Uzbekistan) avtomobil zavodi qurila boshlandi."

S – 1996-yilda dastlabki "Damas", "Tico", Nexia" rusumli yengil avtomobillar zavod konveyridan chiqq boshladi.

M – O'zbekiston jahonda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-davlatdir.

U - "Avtomobilsozlik O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng shakllandi. 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Janubiy Koreyaning DAEWOO kompaniyasi bilan hamkorlikda Andijon viloyatining Asaka shahrida paxta tashiydigan tirkamalar zavodi negizida yengil avtomobillar ishlab chiqariladigan Uz-Daewoo Avto (bugungi kunda GM Uzbekistan) avtomobil zavodi qurila boshlandi. 1996-yilda dastlabki "Damas", "Tico", Nexia" rusumli yengil avtomobillar zavod konveyridan chiqq boshladi. O'zbekiston jahonda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-davlatdir."

3."Sokin test" metodi. Ushbu usul o'quvchilarni qisqa vaqtda sinashda, harakatlarni ketma-ketligini to'g'ri va aniq tashkil etishg, mantiqiy fikrlashga xizmat qiladi. Bugungi mavzuyimizga quyidagicha foydalaniladi.

1. Andijon sh. “Uz-SeMyung KO” qo’shma korxonasi A) avtomobil bampelari
2. Andijon vil. “Uz_koram” qo’shma korxonasi B) yoqilg’i baklari
3. Andijon vil. “Uz-Dong Yang” qo’shma korxonasi C) glushitel, kuzov qismlari
4. Andijon vil. “Uz-Dong Von” YoAJ D) yumshoq qoplamalar
5. Navoiy vil. “UZerae Cable” OAK E) avtomobil elektr o’tkazgichlari.

S/J	1	2	3	4	5
1					
2					
3					
4					
5					

XULOSA.

8-sinf geografiyasidagi avtomobilsozlik mavzusida interfaol o’quv jarayonini tashkil etish ta’limda ijobiy samaradorlikka olib keladi. O’quvchilarni nafaqat bilimga bo’lgan intilishlarini qo’llab-quvvatlash, balki, ularda Vatanparvarlik, atrofida bo’layotgan voqea-xodisalarga nisbatan o’z pozitsiyasini egallashida, yodda saqlash va mulohaza qilish kabi ko’nikmalarini rivojlantirishda muhim ro’l o’ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasining ta’lim to’g’risidagi qonuni <https://lex.uz/docs/-5013007> – internet sayti.
2. R. Mavlonova, N. Voxidova, N. Raxmonqulova – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent-2010 y. 464 b
3. Payoz Musayev, Jahongir Musayev – 8-sinf O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi darslik. Toshkent-2019. 176 b.
4. Mamadaliyev Javlonbek “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi uchun mavzulashtirilgan metodlar jamlanmasi”. Andijon-2019.

5.A.Isayev, A.Arabboyev Teaching technology of the course of economic and social geography of the world using interactive methods. "EKONOMIKA I SOTSIUM".

6.A.Isayev, A.Arabboyev Secondary schools 8th grade in the subject of economic and social geography of Uzbekistan the use of oral methods in teaching the subject of the Tashkent economic region. American Journal of Research 9-10 September – October 2022 ISSN: 2573-5616 Doi 10.31057/2573-5616